

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/6 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Horov Shuxrat Suvonovich

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ
ПРИ УЧАСТИЕ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИИ 8-13

Jo'raqulov Boburmirzo, Masidikov Elyor

TUNKAT YODGORLIGIDAN TOPILGAN O'RTA ASRLAR OILAVIY HAMMOMI 14-19

Allaberganova Ro'zigul

MUSTAQILLIK YILLARIDA URGANCH SHAHRI QIYOFASINING O'ZGARISHI 20-23

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Dr. Abror Kucharov and Dr. Jyoti Meshram

INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN:
A CATALYST FOR INDIAN INVESTMENT 24-38

Raximbayev Akmal Azatboyevich

HUDUDLARDA SANOAT AGLOMERATSIYALARINI SHAKLLANTIRISH
IMKONIYATLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH 39-46

Mamajonova Nodiraxon Alisher qizi

QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI 47-57

Xasanova Dildora O'ktam qizi

QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIGA IXTISOSLASHGAN XO'JALIK VA KORXONALAR
FAOLIYATIDA ISHLAB CHIQRISH 58-71

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Абдусаммарова Сумора

ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИУМ:
ФИЛОСОФСКО-ПРАВОВОЕ ОСМЫСЛЕНИЕ 72-78

Kubatov Shahobjon

UYG'UNLIK G'OYASI VA IJTIMOIIY DAVLAT HAQIDAGI TA'LIMOTLARNI
SINTEZ QILISH MASALALARI 79-88

Uralov Dilshodbek

ON HUMAN MORALITY AND PROFESSIONAL CULTURE
IN THE ETHICAL VIEWS OF IBN SINO 89-93

Tagaev Kamol

YANGI O'ZBEKISTONDA RAHBARLARNI SHAKLLANTIRISHDA
IJTIMOIIY LOYIHALARNING STRATEGIK AHAMIYATI 94-99

Xaydarova Zebiniso Nusratullayevna

EMPIRIZM, RATSIONALIZM VA KONSTRUKTIVIZM KABI TURLI EPISTEMOLOGIK
NAZARIYALARDA INSON MAVJUDLIGI MASALALARI 100-106

Mamadiyarova Malika

OILAVIY QADRIYATLARNING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARI 107-111

Xolova Umida Umedovna

MA'RIFAT VA MA'NAVIYAT UYG'UNLIGINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI:
TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL 112-118

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Baxramova Dilovarxon Gazanfarovna

O'ZBEK VA ISPAN TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI..... 119-122

<i>Qozoqboyeva Dilfuzaxon Ilxomjon qizi</i> GENDER STEREOTYPES OF SPEECH OF UZBEK CHILDREN	123-128
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> POLITENESS STRATEGIES IN ENGLISH AND UZBEK: A PRAGMATIC AND CROSS-CULTURAL COMPARISON	129-132
<i>Chernova Natalya Vasiliyevna</i> RUS BOLALARNING NUTIQA GENDERGA OID BELGILARNI SHAKLLANISHNING LINGVISTIK MEXANIZMLARI	133-136
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURATURA ORGANLARI TOMONIDAN PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI QO'LLASH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	137-146
<i>Rasulov Jurabek Abdusamiyevich</i> XALQARO HUQUQ INQIROZI: ZO'RIQISH OSTIDAGI TIZIM	147-152
<i>Nishonov Abdulloh</i> ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA OBYEKT LARNI JOYLASHTIRISHDA XALQARO EKOLOGIK NORMALARNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSIYASI.....	153-159
<i>Yusupdjanova Gulnoza Ilxomovna</i> JINOYAT PROTSESSIDA SUDNING FUNKSIYASI	160-167
<i>Tursoatov Sodik Xudoyor o'g'li</i> YUKSAK XIZMAT KO'RSATISH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA IFODALANISHI MASALALARI.....	168-174
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	175-179
<i>Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОБРАЗЦЫ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ: ПОНЯТИЕ И ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ	180-193
<i>Узбекова Дильшода Тулкиновна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ МЕР ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ	194-202
<i>Norboyev Bobur</i> LEGAL FRAMEWORKS FOR DIGITAL TECHNOLOGY APPLICATION IN LAND CADASTRE: INTERNATIONAL EXPERIENCES AND PRACTICES IN UZBEKISTAN	203-211
<i>Gafurova Shoirax Baxodirovna</i> XALQARO JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	212-216
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich</i> HARBIY XIZMATGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O'QUVCHILARNING JISMONIY SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLAR: JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR TAYYORGARLIK ASOSIDA.....	217-221
<i>Kamalova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda</i> KINEMATIKADAN OLIMPIADA MASALALARI: KINEMATIK MASALALARDA YUQORI DARAJALI YECHIM YONDASHUVLARI	222-227

Received: 5 July 2025
Accepted: 20 July 2025
Published: 30 July 2025

Article / Original Paper

THE ROLE OF THE HARMONY BETWEEN ENLIGHTENMENT AND SPIRITUALITY IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY: A HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Kholova Umida Umedovna

Bukhara State University,
Lecturer, Department of Islamic History and Source Studies, Philosophy,
Independent Researcher

Abstract. In every social system, there exist concepts such as education, upbringing, and spirituality, which ensure the moral and spiritual elevation of an individual. These concepts serve as reflections that reveal the essence of the notion of enlightenment. Although spirituality and enlightenment are closely related in meaning, they differ in certain aspects. In particular, this article presents a comparative analysis of the harmony between spirituality and enlightenment.

Keywords: spirituality, enlightenment, harmony, values, self-awareness, development, idea, education, reflection, will, thinking.

MA'RIFAT VA MA'NAVIYAT UYG'UNLIGINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI: TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL

Xolova Umida Umedovna

Buxoro davlat universiteti,
Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası o'qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi
Email: umidaxonxolova@gmail.com

Annotatsiya. Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim – tarbiya, ma'naviyat singari tushunchalar mavjud bo'lib, bu tushunchalar ma'rifat tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi in'ikos vazifasini bajaradi. Ma'naviyat va ma'rifat mohiyatan bir — biriga yaqin tushuncha bo'lsa ham, ba'zi jihatlari farq qiladi. Xususan, Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligini qiyosiy jihatdan tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, uyg'unlik, qadriyatlar, o'z-o'zini bilish, rivojlanish, g'oya, tarbiya, tafakkur, iroda, tafakkur.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI6Y2025N14>

Kirish.

Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi jamiyat, xalq kamolotining bosh omillaridan biri hisoblanadi. Ma'rifat ham o'z navbatida madaniyat, ma'naviyat tushunchalari bilan chambarchas bog'liq, ular uyg'un ravishda qo'llanadi. Ma'rifat – mohiyatan aql-idrok, tafakkurning mayog'i, mijozning murabbiysi, qalbda munavvarlikni, insoniy ulug'vorlikni qaror toptiruvchi umriy vosita, iymon-e'tiqod, xarakter, lafzning me'mori, vujudning jon tomiri. U – bilish, tanish, ilm va madaniyatning kamol topish mazmuni, usul va vositalaridir. Chunki, ma'rifat-ma'naviyatga olib keladigan yo'l, uni shakllantiruvchi vositadir. Ma'naviyat va ma'rifat

uyg'unligi tarixi jamiyat tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ma'naviyat va ma'rifat davlat ichki hayotidagi bir butunlikni, odamlar ruhiyatidagi ko'tarinkilik va kelajakka ishonchni, aql-zakovat yuksakligini, o'z faoliyatida tinchlikni, millatlararo hamjihatlikni barqaror rivojlantirish yo'lini aniq belgilashdagi o'z fuqarolarning orzu-umidlarini, manfaatlarini ifoda eta bilish, uni buyuk kelajak sari harakatga yo'naltirish va unga rahbarlik qilish salohiyati hisoblanadi. Ma'naviyat va ma'rifatning yangi jamiyatni qurishdagi qudratli kuch va bebaho manba ekanligi quyidagi masalalarda o'z ifodasini topadi va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ularga alohida e'tibor qaratiladi. Ma'naviyat insonning ijtimoiy madaniyat mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir. [1;9]

Darhaqiqat, inson ma'naviyati uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va jamiyat bilan uyg'unlikda shakllangan xislatlari orqali namoyon bo'ladi, zero, haqiqiy ma'naviyat insoniy fazilatlarining mushtarakligidan quvvat oladi. Shunday ekan, inson ma'naviyati uning axloqiy qadriyatlarini, ijtimoiy muhit bilan uyg'unligi va ezgulik sari intilishida o'z ifodasini topadi.

Ma'naviyat nima, — degan savolga I. Karimov bir o'rinda shunday qisqa va lo'nda javob bergan: "Ma'naviyat — insonning, xalqning, jamiyatning, davlatchilik qudratidir". Nega endi ma'naviyat bunchalik qudratga ega? Ma'naviyatning asl manbai ilohiy nur, Oliy haqiqat nuri, dedik. U inson qalbida, ko'ngil ko'zgusida aks etadi. Ammo buning uchun ko'zguday sayqal topgan bo'lmog'i kerak. Inson riyozat chekmasa, o'zligini yonib izlamasa, Haqiqat sari faqat ongi emas, borliq vujudi bilan intilmasa, uning ko'ngil ko'zgusi sayqallanishi ham mumkin. Shu sababli ma'naviyat nuri barchaga barobar nasib etmog'i tasavvurdan yiroqdir. Ma'naviyat insonning har bir xatti – harakatida o'z ifodasini topadi.

Insoniyatning boshqa maxluqot dunyosidan ajratib turuvchi narsa uning moddiyligidan tashqari qalbida ilohiy nur ham mavjudligidir. Bu qadim allomalarimizning aqidasi ilohiy kalomga tayanadi. Millatni birlashtirib turuvchi omillar – til, tarixiy, hududiy birlik ularda yaxlit ma'naviy qiyofani shakllantiradi. Ammo ilohiy nur birinchi navbatda har bir saodatmand insonning qalbida, ko'ngil ko'zgusida akslanadi. [2;62]

Ma'naviyat va ma'rifat jamiyat oldida turgan muammolar mohiyatini o'zida ifoda ettiradi hamda uni hal qilish uchun fuqarolar va davlat manfaatlarini birlashtiradi. Ma'naviyati va ma'rifati zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda xalqning vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'ulari kuchli bo'ladi. Bunday holat o'z navbatida davlat va xalqning birligini mustahkamlashda turli xil millatlar va ijtimoiy qatlamlarning bir-birlari bilan umummanfaatlar yo'lida jiplashishlarida qudratli omil sifatida xizmat qiladi. Ma'naviyat va ma'rifat bor joyda ehtiyojlar va zaruriyatlar ham yuzaga keladi. O'z navbatida ehtiyojlar va zaruriyatlar shaxs, millat va davlatni kechagidan bugun, bugundan ertaga yana ham yaxshiroq hayot kechirishga, barkamol bo'lishiga etaklaydi, shaxs, millat va davlatning taraqqiyoti sari harakat qilishga da'vat etadi. Bu jarayonda ma'naviyat va ma'rifat shaxs, millat va davlat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi bosh omil hisoblanadi.

Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi ma'naviy qaramlikni bartaraf etuvchi kuch, u insonga aqliy, ruhiy quvvat baxsh etadigan omil sifatida namoyon bo'ladi. Faqatgina chinakam ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligiga erishgan odam inson qadri, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Ma'naviyat va ma'rifat insoniyat tamaddunining ajralmas qismi bo'lib, ularning mazmuni,

ahamiyati va o'zaro aloqasi chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi. Ushbu ikki tushuncha inson hayoti va jamiyat rivojida muhim rol o'ynaydi, biroq ularning farqlari va o'zaro bog'liqligini tahlil qilish ilmiy muhokamalarning asosiy masalalaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili.

XX asr boshlarida taniqli rus sharqshunosi Oldenburg Yevropaning ma'naviyat sohasida shu kungacha qo'lga kiritgan yutuqlari o'tmishda Sharq ma'naviyati kamolot cho'qqilariga nisbatan go'dak bolaning "chug'ur – chug'uri" darajasidadir, degan edi. Nega endi? Mening nazarimda, bu xulosa Sharqda ko'p asrlik ma'naviy takomil jarayonida ongli ravishda ishlab chiqilgan mukammal ma'rifat yo'llari, ma'naviy tarbiya vositasi va usullaridan hayrat zaminida shakllangan bo'lishi kerak. [3; 77]

Ma'naviyat tushunchasi turli falsafiy maktablarda har xil talqin etiladi. G'arb falsafasida Aristotel, Kant va Nyutondan boshlab, Aflotun (Platon) va Dekartgacha bo'lgan mutafakkirlar aql, tajriba va individual huquqlarni birinchi o'ringa qo'ygan. Sharq falsafasida esa Konfutsiy, Budda, Al-Farobiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Al-G'azoliy va Konfutsiy kabi mutafakkirlar insonning ichki kamoloti, jamoaviy qadriyatlar va ruhiy uyg'unlikni asosiy omil sifatida ilgari surgan.

Qadimgi yunon ilmiy-falsafiy qarashlarida inson ma'naviy hayoti uch guruhga bo'lingan – aql (tafakkur), iroda va tuyg'u. Aqlni (tafakkurni) mantiq fani, irodani etika fani tadqiq etgan. XVIII asrga kelib estetika fani vujudga kelgan. U inson tuyg'ulari va kechinmalarini go'zallikka munosabat nuqtai nazaridan o'rgana boshlagan. Ilgari ushbu masalalar umumiy falsafiy fanlar doirasida bilish nazariyasi, etika, poetika, ritorika fanlar tomonidan o'rganilgan. Psixologiya ushbu masalalarni boshdan oq mushtarak tarzda, ammo mavzu doirasini toraytirib va xususiylashtirib, uni inson ongining tashqi ta'sirga javobi (reaksiyasi) tarzida o'rgangan.

Ma'lumki, Yevropa falsafasi «axloq», «ruh», «iroda», «go'zallik» kabi tushunchalarni tadqiq etishda ulkan natijalarga erishgan, teran tadqiqotlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, u ma'naviy hayotni yaxlit holda emas, balki bo'laklarga ajratilgan shaklda ko'rib chiqqan. Shuningdek, Gegel ta'limotida «ruh», Shopengauer ta'limotida «iroda» substansional (borliqning uzviy ulush) ahamiyat kasb etadi va butun tarixiy jarayonning faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Bunday hol ularning ta'limotiga yaqqol (Shopengauer) yoki noyaqqol (Gegel) mistik sifat baxsh etadi. Gegel barcha moddiy va ideal hodisalarni – tabiat, inson, jamiyat, davlat, axloq, huquq, san'at, ong, tafakkur, tushuncha kabi qobiliyatlarni absolyut (mutlaq) ruhning o'ziga xos shakli, moddiylashgan muqobil shakli deb hisoblaydi. Gegel ularning barchasini mutlaq ruhning o'z-o'zidan taraqqiy etishi, o'zining qarama-qarshi, inkor shakliga aylanib, keyin yana o'zini tasdiqlashi kabi o'zi taklif etgan dialektika qonunlariga bog'lab o'rganadi. [4;15]

Demak, ma'naviyat o'z taraqqiyot bosqichlarida turlicha nomlar bilan atalgan bo'lsa-da, mohiyatan bir mazmunni anglatgan. Shuning bilan birga har davrda jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim omil bo'lgan.

Sharq ilmida esa ma'naviy hayotga ko'proq mushtarak hodisa sifatida qaralgan. G'arbdagidan farqli o'laroq "ruh", "iroda", "axloq" (odob) va boshqa ko'plab tushunchalarni alohida har tomonlama tadqiq etish unchalik urf bo'lmagan. Ko'proq qisqacha ta'rif berish, eng muhim belgilarni e'tirof etish bilan cheklangan. Lekin Abu Homid G'azzoliy, Aziziddin Nasafiy (XI—XIII asr) kabi ayrim olimlar bundan mustasno. Islom mamlakatlarida yillar o'tishi bilan ma'naviyatni o'rganish mistik unsurlar qo'shilgan ma'noda rivojlandi, oxir-oqibat ma'naviyat

maqomining ilohiy irodaga, g'ayritabiʼ qobiliyatga va shuurga bog'liq ekanligi e'tirof etildi. Ma'naviyatni tadqiq qilgan, umumlashtirgan ilmiy tushunchalar, kategoriyalar tizimining yaqqol ifodasi va bir atamani ilmiy tahlil qilishga yetarli e'tibor berilmagan. Hatto ko'p tasavvuf doirasidagi tarkib va ta'limotlar ham boshqa sohalar ta'sirida muayyan darajada o'zgargani kuzatiladi.[5;16]

Muhokama.

G'arb sivilizatsiyasida ratsionalizm, sekulyarizm va individualizm asosiy g'oyalar sifatida qaraladi, natijada ma'naviyat moddiy taraqqiyot va ilmiy yutuqlar fonida ikkilamchi ahamiyat kasb etgan. Sharq jamiyatlarida esa axloq, din, jamoatchilik va tarixiy qadriyatlar inson ongining ajralmas qismi sifatida qabul qilinib, ma'naviyat madaniy taraqqiyotning asosiy sharti sifatida ko'riladi. Sharq va G'arb o'rtasidagi sivilizatsion tafovutlar ma'naviyatga bo'lgan yondashuvlarda yaqqol aks etadi. G'arb jamiyatlari ilmiy taraqqiyot, sekulyarizm va individuallikka asoslangan bo'lsa, Sharq jamiyatlari ma'naviyat, an'anaviy qadriyatlar va jamoatchilikka tayanadi. Tarixiy va falsafiy dalillarga ko'ra, Sharq sivilizatsiyalarida ma'naviyatning kuchliroq bo'lishi jamoaviy tafakkur, diniy e'tiqod va madaniy an'analarning mustahkamligiga bog'liq. G'arbda esa individualizm va ratsionalistik yondashuv tufayli ma'naviyat ko'proq shaxsiy tanlov sifatida namoyon bo'ladi.

Sharq jamiyatlarida ma'naviyat faqat axloqiy tushuncha emas, balki ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot omili sifatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviyat insonning ichki dunyosini, axloqiy qadriyatlarini va ruhiy olamini aks ettiradi. Ma'naviyat – shaxsning ruhiy hayot tajribasi, ruhiy olamini, dunyoqarashini, aqliy salohiyatini o'zida mujassamlashtiradi. U shaxsning va millatning o'zligini anglashi, milliy g'urur, milliy iftixor, vatanparvarlik, davlatga hurmat, jamoa an'analarga xayrixohlik, diyonat, mehr-shafqat, poklik, halollik, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, kamtarinlik kabilarni o'z ichiga oladi. Ma'naviyat yo'li – bosqichma-bosqich o'tiladigan yo'l. Inson aqlini tanigandan boshlab, tafakkur, axloq va ma'rifatda kamolotga intiladi. Jamiyat ma'naviyati, uning rivoji ham uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyotning natijasi hisoblanadi. Jamiyat asta-sekin rivojlanib borgan sari inson ma'naviyati ham tarkibiy jihatdan mukammallashib borgan. Ma'naviyatning eng qadimgi asoslarini axloqiy, diniy va badiiy qarashlar tashkil qiladi.[6;159]

Ma'naviyatning asosiy mezonini insonning shaxsiy axloqini shakllantirish va uning jamiyat bilan uyg'unlikda yashash qobiliyatidir. Shu bois, ma'naviyatning shakllanishida oila, ta'lim tizimi, diniy va madaniy an'analarning muhim rol o'ynaydi. Ma'rifat esa insonning bilish, o'rganish va ilmiy-falsafiy yondashuvlar orqali dunyoqarashini kengaytirish jarayonini ifodalaydi. Ma'rifat inson tafakkurining yuksalishi, bilimi va dunyoqarashining kengayishi bilan bog'liq jarayondir. Uning ilk bosqichi esa ibrat olishdan boshlanadi. Inson hayot yo'lida o'zidan avval yashagan buyuk allomalar, mutafakkirlar va tarixiy shaxslarning tajribasidan saboq olib, ularning to'plagan bilimlarini anglash orqali haqiqiy ma'rifat sari yo'l oladi. Ma'rifatning ilk yo'li ibratdir. Sharq falsafasida ham, Islom an'analari ham ibrat olish muhim o'rin tutadi. Masalan, Qur'onda o'tgan ummatlar tarixi haqida ko'p bora so'z yuritilib, insonlar ularning taqdiridan saboq chiqarishga chaqiriladi:

“Darhaqiqat, o'tgan qavmlarning qissalarida aql egalari uchun ibrat bordir.” [7;248]

Ma'rifatga eltuvchi yo'l har doim ibratdan boshlanadi. Kimki o'tgan avlodlarning tajribasini chuqur o'rganib, undan to'g'ri saboq chiqarsa, u ilm va donishmandlik sari

mustahkam poydevor qo'yadi. Inson tafakkuri ham, jamiyat taraqqiyoti ham shu haqiqat asosida quriladi. Zero, ibrat – donishmandlikning kaliti, ma'rifatning ilk pog'onasidir.

Ma'rifat inson tafakkurining ilmiy, texnologik va madaniy taraqqiyotini o'zida aks ettiradi. Quyida ma'naviyat va ma'rifat tushunchasining ba'zi bir jihatlarini qiyosiy tahlilini ko'rib chiqamiz:

1. Ma'naviyat asosan insonning ruhiy dunyosiga qaratilgan bo'lsa, ma'rifat uning aqliy rivojlanishi va taraqqiyoti bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.
2. Ma'naviyat diniy va madaniy an'analar asosida rivojlanadi, ma'rifat esa ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy: "... Ma'rifatli xalq shijoatli bo'lur. Shijoat qalbning matonatidan, ruhning salomatligidan iboratdir. Maorifdan, funundan va madaniyatdan mahrum bo'lgan xalq jaholat panjalarining orasida xamir kabi ezilgandek, a'oli zamirida ham o'z nafsining yoqasini bo'shata olmas... Zeroki, jaholat va qo'rqinch, faqir va muhtojlikdan ziyoda dahshatli bir musibatdir", degan edi.[8;216] Avloniy jaholatni esa inson va jamiyat rivojiga to'siq sifatida ko'rsatadi. U maorif, fan va madaniyatdan mahrum bo'lgan xalqni jaholatning qattiq ta'siri ostida qolib, o'zini mustaqil fikrlashdan va harakat qilishdan mahrum bo'lgan holatda tasvirlaydi. Jaholat shunchaki bilimsizlik emas, balki insonning ruhiy va aqliy qaramligini anglatadi. U xalqni zaiflashtiradi, ularning o'z taqdirini boshqarish imkoniyatlarini cheklaydi.

Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi – qullik tafakkurining kushandasi, u ma'naviy qaramlik, qo'rquv va hadikni bartaraf qiladi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat ato etadi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida jamiyatimiz ozod va erkin istiqbol sari yuz tutdi, ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Chunki, insonning, xalqning, jamiyatning va davlatning kuch-qudrati fuqarolarning ma'naviy-ma'rifiy darajasi bilan baholanadi.[9] Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar aynan shu yo'nalishda olib borilmoqda. Davlat siyosati ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirishni ustuvor yo'nalish deb bilmoqda, chunki fuqarolarning bilimli va ma'naviy yetuk bo'lishi davlatning ham qudratini oshiradi.

Jahonda har bir millatning istiqboli va taraqqiyot darajasi bevosita ilm-fan, ta'lim hamda madaniy yuksalish bilan belgilanadi. Ma'rifat esa ushbu jarayonning tamal toshi bo'lib, u tafakkur taraqqiyoti va insoniyatning ongli rivojlanish yo'lida muhim omil sanaladi. Shu bois, ma'rifat tushunchasining tarixiy bosqichlarini tahlil etishdan avval uning ilk namoyon bo'lish shakllarini belgilash maqsadga muvofiqdir:

1. Ta'lim
2. O'zlikni anglash.

Zamonaviy falsafa va pedagogika fanlari nuqtai nazaridan ta'lim hamda o'zlikni anglash inson epistemologik kamoloti va ontologik o'zligini shakllantiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Ushbu ikki tushuncha o'zaro dialektik bog'liqlikda bo'lib, biri bilimsizlik muhitini yengishda, ikkinchisi esa ma'naviy uyg'unlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natija.

Ma'rifat insonning tafakkuri va bilish jarayonini rivojlantirishda asosiy omillardan biri bo'lib, uning boshlanishida ta'lim hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ta'lim insonning intellektual, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan rivojlanishi uchun poydevor yaratadi va bilishga bo'lgan ichki ehtiyojni shakllantiradi. Ta'lim – ijtimoiy taraqqiyotning determinant omili hisoblanadi. Ta'lim

jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash orqali ijtimoiy taraqqiyotning asosiy determinant omili sifatida namoyon bo'ladi. Zero, prezidentimiz Sh. Mirziyoyev aytganlaridek, ta'lim va tarbiya, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta'minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi. "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" dasturidan yoshlarimizni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o'rin egallashi tabiiydir. Bu borada farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi-yangi ta'lim- tarbiya, madaniyat, san'at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy- joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yangi, yuksak bosqichga ko'taramiz. Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz deb alohida ta'kidladilar.[10;243]

Xulosa.

Ta'lim inson ongining bilish faoliyatini rivojlantirish, mantiqiy tafakkurni shakllantirish hamda ijtimoiy institutsional tizimlar orqali ilmiy dunyoqarashni mustahkamlash jarayonidir. U ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lib, inson kapitalining rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ta'lim jarayoni inson tafakkurini rivojlantirish bilan birga, uni tarixiy xotira, ilmiy tafakkur va innovatsion yondashuvlar orqali jamiyatga integratsiyalashishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy gnoseologik yondashuvlar ta'limni inson bilish faoliyatining oliy shakli sifatida talqin qilib, uni axborot transformatsiyasining kompleks tizimi deb baholaydi. Ta'lim jarayonida inson ilmiy metodologiyalarni egallab, mavjud bilimlarni tizimli tahlil qilish va ularni real hayotiy voqelikda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shunday qilib, ta'lim ijtimoiy taraqqiyotning ijtimoiy-madaniy determinant sifatida insonni yangicha tafakkur modeliga yo'naltiradi.

Ma'rifat falsafasi inson tafakkurining erkinligi va ilmiy izlanishlar rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Insoniyat tarixida tafakkur erkinligi har doim ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan. Tafakkurning erkinligi cheklangan jamiyatlarda innovatsiyalar susayib, ilmiy va madaniy rivojlanish sekinlashgan. Shu sababli, har qanday taraqqiyotga intilgan jamiyat tafakkur erkinligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Ma'rifat falsafasi tafakkur erkinligini nafaqat ilmiy jarayonlarda, balki ijtimoiy taraqqiyotda ham muhim omil sifatida ko'radi. Har qanday jamiyatda erkin fikrlash rivojlangan bo'lsa, demokratiya, inson huquqlari va madaniy uyg'unlik kabi tamoyillar mustahkamlanadi. Cheklangan tafakkur esa aksincha, konservatizm va mutaassiblikka olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. – T.: "Sharq", 1998. – B.9.
2. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. – T.: "Sharq", 1998. – B.62.
3. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. – T.: "Sharq", 1998. – B.77.
4. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. B 15

5. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. B. 16
6. Raxmonova G.Sh. Ma'naviyat-jamiyat rivojlanishining muhim omili. "Экономика и социум" №10(101)-1 2022 .B.159
7. Shayx Abdulaziz Mansur.Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T: Munir. B. 248.
8. Avloniy A. Tanlangan asarlar: 2 jildlik/To'plovchi, nashrga tay-yorlovchi B. Qosimov; Toshkent: «Ma'naviyat», 2009. B.216.
9. <https://oyina.uz/uz/teahause/1916>
10. Ш.Мирзиёев. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. Халқ сўзи. 2016 йил 8 декабрь. 243-сон.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/6 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).